
UMMON SULTONLIGINING AL MAWAKAB KOMPANIYASI FARG'ONA VILOYATIGA INVESTITSIYA KIRITADI

O'zbekistonning Ummon Sultonligidagi elchixonasida "Al Mawakab National Trading & Construction" (MNT) kompaniyasi bosh menejeri Syu Yuxang bilan uchrashuv o'tkazildi.

Suhbat davomida Farg'ona viloyatining investitsion salohiyati, xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida fikr almashildi.

Syu Yuxang Farg'ona viloyatida axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit mavjudligini ta'kidladi. Shu sababli viloyatdagi o'rta ta'lif muassasalarida zamonaviy o'qitish tizimini joriy etish va raqamli texnologiyalar markazlarini yaratish bo'yicha qiymati 3 million dollar bo'lgan loyihaning taqdimoti bilan tanishtirdi.

"Al Mawakab National Trading & Construction" rahbari mazkur loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan holda kelgusida keng imkoniyatlarga ega sim-kartalar ishlab chiqaruvchi korxonani ishga tushirish, savdo-iqtisodiy sohani muvofiqlashtiruvchi elektron dasturni yo'lga qo'yish, "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida logistika markazini barpo etish kabi istiqbolli loyihalarni ishlab chiqishga tayyorligini bildirdi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joiz, MNT 2007 yilda tashkil etilgan bo'lib, yirik inshootlar, transport-logistika markazlari, suv va elektr stantsiyalarni ishga tushirish kabi turli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, kompaniya binolarda zamonaviy monitoring tizimlarini yaratish, dasturiy axborot-kommunikatsiyalar ishlab chiqishda ilg'or tajribaga ega.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-11-08 10:21:07